

**O'ZBEK TARJIMA MAKTABINING RIVOJLANISH TARIXI****Subanova D.V***Toshkent davlat pedagogika universiteti Ingliz tili nazariyasi va uni o'qitish
metodikasi v.b. dotsenti**subanovadilafruz88@mail.com**tel: (97)7010251***Ismoilova I. A***TDPU Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi***Umarova Z. T.***TDPU Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi***Vallamatova S. S.***TDPU Xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbek tarjima maktabi rivojlanishiga xissa qo'shgan buyuk tarjimashunoslar ijodiga bag'ishlanadi. Maqolada mamlakatning, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, ma'naviy-ma'rifiy yuksalishida tarjimaning o'rni haqida, shu bilan birga o'zbek tarjimashunosligi tarixida o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan tarsjimashunos olimlar, yozuvchilar haqida ma'lumot berilgan. Ularning boshqa tillardan o'zbek tiliga tarjima qilingan ijodiy ishlari misol tariqasida tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Tarjima, tarjimon, tarjimashunos, manbaa til, tarjima qilingan til, muqobillik, yozma tarjima, og'zaki tarjima.

Аннотация: Данная статья посвящена трудам великих переводчиков, внесших вклад в развитие узбекской переводческой школы. В статье содержится информация о роли перевода в социально-экономическом развитии, духовном и образовательном росте страны, а также сведения о переводчиках и писателях, занявших достойное место в истории узбекского переводоведения. В качестве примеров анализируются их творческие произведения, переведенные с других языков на узбекский язык.

Ключевые слова: перевод, переводчик, язык оригинала, язык перевода, письменный перевод, устный перевод.

Annotation: This article is devoted to history of the development of the Uzbek translation school and their main representatives. The main period in and the reasons of the development of translation is clarified in this research. This article also gives information about the works of writers and transleologists on translations in Uzbekistan.

Key words: translation, interpretation, transleology, transleologist, source language, target language.

So'ngi yillarda mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu jarayon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hamda davlatimiz





rahbari tomonidan bu sohani rivojlantirishga oid ko'plab qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida bugungi kunda talabalarga xorijiy tillarni mukammal o'rgatish, ushbu jarayonga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, talabalarning kasbiy maxoratlarini oshirish bo'yicha pedagoglar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bilamizki, tarjima insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Tarjima jarayoni qadim zamonlardan boshlab turli xalqlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda, millatlar o'rtasidagi adabiy aloqalarni rivojlantirishda mustahkam ko'priklar vazifasini o'tagan. Qisqasini aytganda tarjima insoniyat tarixi taraqqiyotida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Tarjimaga ko'pgina olimlar turlicha ta'rif berishgan. Buyuk tarjimashunos olim Qurdat Musayev tarjimaga quyidagicha ta'rif beradi: Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima - bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va xamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir. Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jaxon adabiyoti durdonalaridan baxramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar haqida tushunchalar xosil bo'ladi. [2]

O'zbek tarjima maktabining rivojlanish tarixi o'ziga xos xususiyatga ega. Bu o'ziga xoslik birinchidan, o'rta asrlardayoq Sharq tillaridan, asosan arab tilidan turkiy va fors-tojik tillariga turli diniy va ilmiy asarlar tarjimalarining keng tarqalishi, ikki tilli lug'atlarning mavjudligi; ikkinchidan, XIX asrning ikkinchi yarmidan to'g'ridan-to'g'ri G'arb tillaridan tarjima jarayonlarining boshlanishi va nihoyat, uchinchidan, jahon adabiyoti durdonalarining rus tili orqali bilvosita va o'zga tillardan o'zbek tiliga bevosita tarjimalari keng rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Jahon adabiyotining tarjima qilinishi va omma e'tiboriga havola qilinishi o'zbek madaniyati rivojida katta ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu madaniy-ma'rifiy hamda adabiy aloqalarda rus tili o'zbek kitobxonini jahon madaniyati va adabiyoti bilan bog'lovchi ko'priklar rolini o'ynadi. O'tgan asrdagi o'zbek tarjima maktabi o'zining amaliyotida asosan rus tilidan tarjimalarga asoslangan edi. Binobarin, ingliz tilidagi adabiyotlar ham rus tili vositasida o'zbek tiliga tarjima qilinardi. Ushbu davrda ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima maktabi deyarli yo'q edi.





O'zbek tarjima maktabining yuqoridagi o'ziga xos jihatlari quyidagi omillarga asoslanadi: birinchidan, o'zbek tarjima maktabi o'rta asrlardan oq shakllangan bo'lib, islom dini va madaniyatining keng tarqalishi ushbu jarayonning rivojlanishidagi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Keyinchalik fan va adabiyot maktabining ko'plab namoyandalari islom sivilizatsiyasining shakllanishi va fan va madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. O'sha davrning buyuk qomusiy olimlarining ijodi buning yorqin dalilidir. O'sha davrning xususiyatlaridan biri ikki tilli lug'atlarning mavjudligi, olimlar o'rtasidagi ikki tillilik va tarjimonlik mahoratining rivojlanganligi edi.

Ikkinchidan, o'zbek tarjimonlik maktabining rivojlanish jarayoni milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarning tiklanishi, mustamlaka davridagi ozodlik g'oyalarining paydo bo'lishi va jadidchilik harakatlarining namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir. Har qanday xalqning o'z-o'zini anglashi uchun avvalo uning ma'naviyatini va ma'rifatini oshirish talab etiladi. Shu maqsadda o'zbek ma'rifatparvarlari o'quvchilarni jahon adabiyotining oltin fondiga kirgan eng buyuk va o'lmas asarlar bilan tanishtirishga intilganlar. Shu sababli, rus va boshqa tillardan, jumladan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishning birinchi urinishlari jadidlar faoliyati davrida paydo bo'ladi.

Uchinchidan, o'zbek tarjima maktabining eng rivojlangan davri XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda o'zbek tarjima maktabi vakillari tomonidan tarjimaning asosiy tamoyillari, metodlari, qonun qoidalari ishlab chiqildi va tarjimashunoslik deb atalmish yangi fan vujudga keldi. Natijada, adabiyot sahnasiga bir qancha tarjimonlar va tarjimashunos olimlar kirib keldi.

Shu o'rinda tarjimon va tarjimashunos so'zlariga ta'rif berib o'tsak. "Tarjima" arab tilidan olingan bo'lib, "bir tildan ikkinchi tilga ag'darish, o'girish, izohlash, sharxlash" degan ma'nolarni bildirib, bir tildagi matnni boshqa tilda qaytadan yaratishdan iborat adabiy ijod turidir. "Tarjimon" – tarjima qiluvchi shaxs. "Tarjimashunos" – tarjima nazariyasini, uning qonun qoidalarini o'rganuvchi mutaxassis, olim. [3]

Bu davrda ko'plab shoir va yozuvchilar tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullangan. Shuningdek, badiiy tarjimaning o'ziga xos jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Bu borada G'.Salomov, S.Mamajonov, G.Xo'jayev, N.Vladimirova, Q.Jo'rayev, N.Komilov, S.Meliyev, S.Azimov, Sh.Atabayev, S.Ochilov, B.Ermatov, X.Ismoilov, M.Baqoyeva, N.Atajanov va Q.Musayev kabi tarjimashunoslarning ijodiy faoliyati O'zbek tarjima maktabining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan.

Aynan shu davrda Usmon Nosir, Sanjar Siddiq, Jumaniyoz Sharipov, Ninel Vladimirova, Mirzakalon Ismoilov kabi o'nlab tarjimon, yozuvchi va shoirlar tomonidan (rus va g'arb adabiyotining 200 dan ortiq mumtoz asarlari) jahon adabiyoti asarlaridan yuzlab tarjimalar amalga oshirildi. Gulnora G'ofurova, Asqad Muxtor, G'afur G'ulom Shekspirning "Otello"sini, Maqsud Shayxzoda Shekspirning "Gamlet", "Romeo va Juletta", "Qirol Lir" asarlarini, Uyg'un Shekspirning "Yuliy Sezar" asarini, Komil Yashin Shekspirning "Antoni va Kleopatria" asarini, Jamol Kamol Shekspirning "Qirol Richard" asarini, Qodir Mirmuhamedov J. Bokachoning "Dekameron" asrini,





Erkin Vohidov Gyotening, "Faust" asarini, Abdulla Oripov Dantening "Ilohiy komediya" asarini, Sh.Shamuhamedov Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarini o'zbek tiliga moxirona tarjima qilganlar. Ushbu jahon durdonalari o'zbek tarjimonlari tomonidan kitobxonlar qo'liga yetkazildi va o'zbek teatrlarida tomoshabinlar e'tiboriga havola qilindi.

Xuddi shu davrda ingliz shoirlari Robert Byorns va Bayron asarlari, Shekspir sonetlari, Charlz Dikkens, Jonatan Svift, Teodor Drayzer, Jon Steynbek, Ernest Xeminguey va boshqa mualliflarning asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. 1980-1990 yillarda Kristofer Marlning "Sohibqiron Temur" tragediyasi o'zbek tiliga tarjima qilingan. Xuddi shu davrda ingliz va Amerika adabiyotining o'ttizdan ortiq namoyandalari, yozuvchi va shoirlari asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Biroq, bu tarjimalarning asosiy xususiyati shundaki, ular ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri emas, balki rus tilidan bilvosita qilingan tarjimalar edi.

XX asrning 50-yillarida badiiy tarjima ko'pgina tarjimashunoslar tomonidan rivojlantirila boshlandi. Shu sababli XX asrni tarjima asri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu sohani rivojlanitirishda A.Muxtor, J.Sharipov, G'.Salomov, N.Vladimirova, N.Komilov, K.Jo'raev, T.Jo'ra, S.Olim, Q.Musayev, A.Muminov kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi.

Ayniqsa, filologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Xalqaro Bobur mukofoti laureati, professor G'.T.Salomovning bu sohadagi xizmatlari tahsinga loyiq. Professor G'aybulla Salomov (tahllusi G'aybulla as-Salom) o'zining butun ilmiy faoliyatini O'zbekistonda tarjimashunoslikni o'rganib, uni alohida fan sifatida shakllantirishga bag'ishlagan salohiyatli yirik olimdir [4].

G'aybulla as-Salom "Maqol va idiomalar tarjimasi" (1961), "Til va tarjima" (1966), "Tarjima nazariyasiga kirish" (1978), «Do'stlik ko'priklari» (1970, N.Komilov bilan hamkorlikda), "Adabiy an'ana va badiiy tarjima" (1980), "Tarjima nazariyasi asoslari" (1983) kabi ilmiy-nazariy asarlar yozgan. Mustaqillik yillarida allomaning "Ey, umri aziz", "Armon", "Vahiydan kelar bir sado", "Tolibnoma", "Ezgulikka chog'lan, odamzod", "Halollik bozorda sotilmaydi", shuningdek, "Boburnoma" (N.Otajonov bilan hammualliflikda) singari ma'naviyat va ma'rifat, tarix va madaniyat masalalariga oid kitoblari nashr etilgan[5].

O'zbek tarjimashunosligi rivojiga hissa qo'shgan yana bir ulug' olim, tarjimashunos Jamol Kamol fransuz mumtoz adabiyotining namoyandasi Bualoning "She'riy san'at" asarini, ozarbayjon shoiri Baxtiyor Vahobzodaning Muhammad Fuzuliy haqidagi "Shabihijron" dostonini, Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti kitobdan iborat "Masnaviyi ma'naviy" asarini, Shayx Fariduddin Attorning asarlarini, Abdurahmon Jomiyning g'azallar kitobini, Shayx Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz" asarini, buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspirning o'ndan ortiq asarlarini bevosita ingliz tilidan, Aleksandr Pushkinning "Motsart va Saleri", Yan Raynisning "Oltin tulpor", Bartold Brextning "Sichuandan chiqqan mehribon" asarlarini rus tilidan mahorat bilan





tarjima qilgan. Shuningdek, Jamol Kamol she'rlari rus, ingliz, fransuz, polyak, ukrain, turk, ozarbayjon, tojik va boshqa ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Tarjimashunoslik sohasida xizmat ko'rsatgan yana bir olim filologiya fanlari nomzodi, professor Omonjon Mo'minov tarjimaning og'zaki va yozma turlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha darsliklar muallifidir. Uning "English for translator", "A guide to consecutive translation" ("Ketma ket tarjima") va boshqa o'quv qo'llanmalari tarjimonlikni o'rganayotgan talabalar uchun asosiy manbaa bo'lib xizmat qilib kelmoqda [6].

O'zbek tarjimashunos namoyondalaridan biri Qudrat Musayev Toshkent davlat pedagogika universiteti Xorijiy tillar fakultetida bir necha yillar davomida ijodiy faoliyat olib borgan bo'lib, talabalarga Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan saboq berib keldi. Shu bilan birga uning "Tarjima nazariyasi" (2003), "Tarjima nazariyasi asoslari" (2005) darsliklari talabalar tomonidan shu kunga qadar asosiy darslik sifatida qo'llanilib kelinmoqda [7].

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy-siyosiy inqirozdan so'ng jamiyat madaniy hayotining mustaqil yo'nalishi sifatida tarjimashunoslik o'z taraqqiyotida to'xtasa-da, keyinchalik asta-sekin tiklana boshladi. O'zbek tarjima maktabida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Turli oliy ta'lim muassasalarida "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedralari tashkil topdi. Tarjimashunoslik bevosita badiiy asarlarni tarjima qilish orqali emas, balki filmlarni dublyaj qilish orqali ham o'zini namoyon qila boshladi. Ko'pgina jahon adabiyoti asarlari, filmlar xorijiy tillardan o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi [8].

Bugungi kunda o'zbek tarjima maktabini keng rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud, eng muhimi, asl badiiy asarlardan bahramand bo'lish uchun hech qanday qiyinchilik yo'q. Shu bilan birga, O'zbekistonda ikki tilli lug'atlarni nashr etish bo'yicha faoliyat jadal rivojlanmoqda, bu esa tarjimashunoslik uchun qulay imkoniyatdir.

Bugun o'zbek tarjimashunosligida yangi, istiqbolli, imkoniyatlarga to'la davr boshlandi. Bu davrning asosiy xususiyatlarini xorijiy davlatlar bilan adabiy, madaniy, ilmiy aloqalarning kengayishi, chet tillarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganligi, ko'pchilikning xorijiy davlatlariga chet tillarni, xususan, ingliz tilini yaxshilash maqsadida sayohat qilish imkoniyatining yaratilayotganligi, zarur o'quv adabiyotlarining mavjudligi, lug'atlarning ko'pligi, internet vositalaridan foydalanish kabi omillar belgilab beradi. Biroq, bu imkoniyatlar yetarli emas. Oliy ta'lim tizimida badiiy va ilmiy tarjimaga yo'naltirilgan mutaxassislar tayyorlash borasidagi ishlar samarali olib borilmaguncha, o'zbek tilidan ingliz tiliga, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalarda kamchiliklar sezilib qolaveradi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Xorijiy tillar fakultetida "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" fani o'quv rejadagi majburiy fanlar qatoridan joy olgan. Mazkur fan "Ingliz tili nazariyasi va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchilari tomonidan o'qitilmoqda. Ushbu fanning maqsadi bo'lajak ingliz





tili mutaxassislarining yozma va og'zaki tarjima mahoratlarini rivojlantirishdir. Mazkur fakultet talabalari yuqoridagi olimlarning fikrlariga amal qilgan holda tarjima sohasida izlanishlar olib bormoqdalar. Professor M.H.Alimova boshchiligida iqtidorli talabalar tomonidan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ingliz tiliga tarjima qilindi va bu borada bir qancha ijodiy ishlar nashr ettirildi. Fakultet dekani, dotsent A.M.Mamadaliyev tomonidan talabalar o'rtasida og'zaki tarjima ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha seminar treninglar o'tkazilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarjima jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida muhim o'rin tutadi. Tarjima ko'pgina mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Tarjima yordamidagina inson turli xalqlar va ularning madaniyati bilan tanishadi, dunyoqarashini kengaytiradi [9]. Bugungi kunda tarjima jarayoni tarjimashunos olimlarning sa'y-harakatlari bilan kun sayin rivojlanib bormoqda. Ammo, bu jarayonda ba'zi kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin. O'zbekistonda tarjima nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar ko'p. Bugungi kunda yosh avlod yuqorida aytib o'tilgan tarjimashunoslar ijodi asosida bu sohada izlanishlar olib bormoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev. «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 19 may PQ-5117. <https://lex.uz/docs/-5426736>
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси. – Тошкент; 2003.
3. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N.Mahkamov va boshqalar... O'zbek tilining izohli lug'ati. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20A.pdf
4. G'. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent. 1990.
5. Профессор Ғайбулла ас – Салом (Тождидин ўғли Ғайбулла Саломов). Илмий ва ижодий фаолиятига оид маълумотлар. Самарқанд, 1992.
6. A. Muminov. A guide to consecutive translation. - Tashkent; 2013.
7. Мусаев Қудрат. Таржима назарияси асослари. - Тошкент; Фан; 2005.
8. D. Subanova, U. Nurmuradova. The Translation of Color Idioms from English into Uzbek. International Journal of Academic Accounting, Finance & Management. Vol. 4 Issue 10, October - 2020, Pages: 149-151
9. Subanova Dilafuz. Translation of idioms in English and Uzbek. Spirit Time. Scientific journal. Berlin, Germany № 12 2018. ISSN 2522-9923. Pp. 58-60.

